

Geodeziya marafoni

Amaliyot davrida bilimlarni yanada mustahkamlash va amaliyotchilarni vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida o'tgan hafta davomida "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti 2- kurs amaliyot o'tayotgan talabalar o'rtasida GEODEZIYA MARAFONI bo'lib o'tdi. Musobaqa YRB fakulteti dekani Sh. Narbayev, "G va GI" kafedrasida dotsenti A. Inamov va fakultet Yoshlar Ittifoqi faollari tomonidan tashkil etildi. Marafonda Talabalarning olgan bilimlari va epcilligi tekshirildi.

Marafon uch yo'nalishda bo'lib o'tdi:

1. Geodezik uskunani ishchi holatga keltirish;
2. N3 nivelirida sanoq olish;
3. 2T30P teodalitida burchak o'lchash;

Marafon qizgin kayfiyatda o'tdi. Talabalar yakka va jamoa bo'lib ishlab g'oliblik sari intilishdi. Marafonning g'oliblari quyidagicha aniqlandi. 1 - yo'nalishida YRB fakulteti talabasi Norimboyev Humoyun, 2 - yo'nalish YRB fakulteti 211 - guruh jamoasi g'olib bo'ldi. 3 - yonalish g'oliblari keyingi turda aniqlanadi. Musobaqani tashkillashtirgan "G va GI" kafedrasida dotsenti A. Inamovga talabalar nomidan tashakkur bildiramiz.



YRB yoshlar matbuot kotibi Sh.Hamidullayev

Institut matbuot kotibi R. Jumaniyozov